

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MIRZAYEVA GULBAXOR SOXIBOVNA

**O‘ZBEK VA INGLIZ BADIY MATNLARIDAGI
LINGVOKULTUREMALARNING SEMANTIK TADQIQI HAMDA
TARJIMA MUAMMOLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati
mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on philological
sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Mirzayeva Gulbaxor Soxibovna

O‘zbek va ingliz badiiy matnlaridagi lingvokulturemalarning semantik tadqiqi
hamda tarjima muammolari.....3

Mirzayeva Gulbaxor Sokhibovna

Semantic study of linguoculturemes in Uzbek and English literary texts and
problems of their translation.....25

Мирзаева Гулбахор Сохибовна

Семантическое исследование лингвокультурем в узбекских и английских
художественных текстах и проблемы их перевода.....47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ.....52

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MIRZAYEVA GULBAXOR SOXIBOVNA

**O‘ZBEK VA INGLIZ BADIY MATNLARIDAGI
LINGVOKULTUREMALARNING SEMANTIK TADQIQI HAMDA
TARJIMA MUAMMOLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Fil5720 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Farg'ona davlat universitetining veb-sahifasi (www.fdu.uz) hamda "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ganiyeva Dildoraxon Azizovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy oponentlar:

Sadiqov Zohidjon Yaqubjanovich
filologiya fanlari doktori, professor

Marufeva Zulfiya Nabiyevna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat chet tillari instituti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "14" 08 soat 800 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, B.Marg'imoniy ko'chasi, 105-uy; Tel.: (373)244-57-82; e-mail: info@fdu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universiteti Axborot-resurs markazida tamishish mumkin (530 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Muribbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (373)244-44-94).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "1" 08 da tarqatildi.

2025-yil "1" 08 dagi 39 raqamli reyestr bayonnomasi.



G.Z.Rozikova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, filol.f.d., professor

M.T.Abdupattoyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

A.G.Sabirdinov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida lingvokulturologiya, semantika, matnshunoslikka oid tadqiqotlar ko‘lami kengayib bormoqda. Tarjimashunoslikda dunyo hamjamiyatidagi madaniyatlar almashinuvi, har bir xalqning milliy-madaniy, ma’naviy-ma’rifiy, etnografik, e’tiqodiy qarashlari va ularga chambarchas bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatlari asosiy o‘rin tutadi. Shu jihatdan semantik xususiyatlarni madaniy ma’lumotlar sifatida tashuvchi lingvokulturologik birliklarni o‘rganish zamonaviy tilshunoslikda ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Zero, lingvokulturemalar muqobilsiz leksika sifatida turli tizimdagi tillar tarjimai jarayonida zarur bo‘lgan lisoniy birliklar bo‘lib, noyob leksik-semantik farqlarni, madaniy yuklangan tushunchalar va hodisalarni aks ettiradi. Shuningdek, madaniyatlararo muloqotda va adekvat tarjimani ta’minlashda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida lingvokulturologiya milliy tilni o‘zida mujassam etgan, uning xususiyatlarini namoyon etuvchi, moddiy va ma’naviy madaniyatni hamda unga oid tadqiqotlar natijalarini qamrab olgan yangi integrativ bilimlar sohasi deb baholanadi. Milliy adabiyot namunalarini badiiy tarjima asosida bir tildan ikkinchi tilga o‘girish, rivojlantirish va madaniyatlararo aloqalarni kengaytirish, shuningdek, xalqlar o‘rtasidagi muloqot kompetensiyalarini mustahkamlash maqsadida, milliy-madaniy xususiyatlarni ifodalovchi lingvokulturemalardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, antropotsentrik paradigma doirasida madaniyatga oid lug‘atlar yaratish zarurati bevosita so‘zlarning milliy-madaniy mazmuni bilan bog‘liq. Shunga muvofiq til birliklarining milliy-madaniy jihatlarini chuqur o‘rganish zarurati, til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga xizmat qilib, lingvokulturologiya sohasida ilmiy-nazariy asoslarning rivojlanishi uchun zamin yaratadi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda milliy o‘zlikni anglash, xalq ma’naviyatini yuksaltirish, badiiy yodgorliklarni jahonga tanitishga qaratilgan sa’y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Bugungi globallashuv asrida jahon madaniyatining durdona asarlarini o‘zbek tiliga o‘girish va, o‘z navbatida, kitobxonlarni umuminsoniy qadriyatlardan xabardor qilish, o‘zbek xalqining yuksak badiiylik bilan to‘yingan asarlarini xorijiy tillarga tarjima qilishga e’tibor kuchaytirilmoqda. Tarjimashunoslik sohasida lingvokulturemalar, universal va milliy-madaniy konseptlarning tarjimadagi muammolari o‘rganilmoqda. Bu jarayonda til, inson va madaniyatning o‘zaro ta’siri va sintezi tadqiqotlarning asosini tashkil etadi. Hozirgi kunda badiiy matn tarjimalarida o‘zbek badiiy asarlarining adekvat ifodalanishiga bo‘lgan ehtiyoj oshib bormoqda. Bu esa tarjimashunoslik sohasida xalqlar milliy-madaniy an’ana va urf-odatlarining tildagi ifoda usullarini o‘rganish uchun chuqur izlanishlar olib borish zarurligini ko‘rsatadi. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning yangi davrida “Har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e’tiborni mustaqillikka bo‘lgan e’tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga

aylantirishimiz lozim”¹. Shu maqsadda, o‘zbek badiiy matnlaridagi lingvokulturemalarning o‘rni va o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, inglizcha tarjimada ularning leksik-semantik, milliy-madaniy, universal va uslubiy jihatlarini saqlash yo‘llarini lingvokulturologik, konseptologik, etnofolkloristik va kognitiv-pragmatik yo‘nalishlarda o‘rganish zamonaviy tilshunoslik, matnshunoslik, qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikning ilmiy-amaliy asoslarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari; 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-sonli “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. XX asrning ikkinchi yarmida jahon tilshunosligida yangi davrga xos etnik renessans yetakchilik qildi. Adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, etnografiya va psixologiyada, ayniqsa, tilshunoslikning lingvokulturologiya sohasida ilmiy izlanishlar olib borish uchun zamin yaratildi. Jumladan, Yevropa va Amerika tilshunos olimlari V.Gumboldt, E.Sepir, B.Uorf, B.Malinovskiy, N.Tolstoy, J.Lakoff, E.Benvenist, R.Lado,

¹“Миллий ўзлигимиз ва мустақил давлатчилигимиз тимсоли”. Президент Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи / Халқ сўзи. – Тошкент, 2019, 22 октябрь. – № 218 (7448). – Б.1. (murojaat sanasi: 23.03.2024).

E.Naida, I.Vaysgerberlar xalqlarning o'ziga xos xususiyatlari hamda lingvokulturologiyaning nazariy asoslarini turli jihatdan tadqiq etganlar².

Til va madaniyat munosabati rus tilshunoslari V.Maslova, V.Teliya, V.Vorobyov, M.Golovanivskaya, Y.Stepanov, D.Malseva, V.Karasik, E.Sheygal, N.Alefirenko, R.Frumkina; o'zbek olimlari N.Mahmudov, Sh.Safarov, A.Mamatov, G'.Hoshimov, D.Xudoyberganova, Sh.Maxmaraimova, Sh.Usmanova, N.Amankulova, Z.Marufova va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan³.

Jahon tilshunosligida lingvokulturologiya va tarjima nazariyasining uyg'unligi bilan bog'liq tadqiqotlar orasida G.Tomaxin, V.Gak, J.Darbelnet, J.Viney, L.Venuti, o'zbek tilshunosligida esa G'.Salomov, M.Umarxo'jayev, Z.Sadiqov, D.Hoshimova, K.Karimov kabi olimlarning izlanishlari alohida ahamiyatga ega⁴.

²Гумбольдт В. фон. Язык и философия культуры. – М., 1985; Sapir E. Time perspective in Aboriginal American culture, a Study in Method. – Ottawa: Geological survey memoir, 1916. – № 13; Уорф Б.Л. Отношение норм поведения и мышления к языку // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. – М., 1960.– № 1.; Malinowski V. A scientific theory of culture and other essays. – USA: University of North Carolina Press, 1944; Толстой Н.И. Язык и культура (некоторые проблемы славянской этнолингвистики) // Русский язык и современность. Проблемы и перспективы развития. – М., 1991; Лакофф Д. Когнитивная семантика. Язык и интеллект. – М., 1995; Бенвенист Э. Общая лингвистика. – М.:УРСС, 2002; Kramsch C. Re-reading Robert Lado, 1957, Linguistics across Cultures // Applied linguistics for language teachers. Classic book review. – USA: Blackwell Publishing Ltd, 2007. – №2.; Nida E.A. Language and Culture // Entreculturas. ISSN: 1989- 5097. Fecha de publicaci6n: 27-03-2009, – №1; Вайсгербер Й.Л. Родной язык и формирование духа. Пер. с нем. // Weisgerber J.L. Muttersprache und geistesbildung. – М.: URSS, 2009.

³Маслова В.А. Лингвокультуроология. – М.: Академия, 2001; Телия В.Н. Русская фразеология // Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М., 1996; Воробьев В.В. Лингвокультуроология. – М.: Рос.ун-т дружбы народов, 2006; Головановская М.К. Французский менталитет с точки зрения носителя русского языка. – М.: МГУ, 1997; Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования. – М.: Языки русской культуры, 1997; Мальцева Д.Г. Германия: страна и язык: Лингвострановедческий словарь. – М.: Издательство Астрел, 2001; Карасик В.И. Лингвокультурные концепты // Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – М.: Гнозис, 2004; Шейгал Е.И. Семиотика политического дискурса: Дисс. ...док. филол. наук. – Волгоград, 2000; Алефиренко Н.Ф. Лингвокультуроология: ценностно-смысловое пространство языка: учеб. пособие. – М.: Флинта Наука, 2010; Фрумкина Р.М. Психоллингвистика: что мы делаем, когда говорим и думаем. – М.: Препринт WP6, 2004; Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab ... // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. – № 5; Сафаров Ш. Семантика. Монография. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2013; Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Noshir, 2019; Хошимов Г.М. К теории концептов и их таксономии в когнитивной лингвистике // Систем-структур тилшунослик муаммолари. Филология фанлари доктори, профессор Н.К.Турниёзов таваллудининг 70 йиллигига бағишланган республика илмий-назарий конференцияси материаллари. – Самарканд, 2010; Худойберганова Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013; Махмараимова Ш.Т. Лингвокультуроология. – Тошкент: Чўлпон номидаги НМИУ, 2017; Usmanova Sh. Lingvokulturologiya / Darslik. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, 2019; Amankulova N. O'zbek tilida sifatga oid leksemalarning lingvokulturologik tadqiqi masalalari. Monografiya. – Toshkent, 2021; Маруфова З.Н Мумтоз бадий матнларда “тўзаллик” концептининг вербаллашуви: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Фарғона, 2022.

⁴Томахин Г.Д. Реалии-американизмы / Пособие по страноведению: учеб. пособие. – М.: Высшая школа, 1988; Gak V.G. Translation and Relevance: Cognition and Context. – Oxford: Blackwell, 1991; Darbelnet J., Vinay J.P. Comparative Stylistics of French and English // A Methodology for Translation. – Amsterdam: Philadelphia. John Benjamins Publishing Company, 1995; Venuti L. Strategies of translation / Routledge encyclopetia of translation studies by Baker. – London: Taylor and Francis Books Ltd., 2001; Саломов Ф. Тил ва таржима. – Тошкент: Фан, 1966; Умархўжаев М. Таржима дунёси ва унинг фалсафаси. // Таржиманинг лингвокогнитив, коммуникатив-прагматик ва лингвокультурологик аспекти. – Андижон: Andijon pashriyot-matbaa, 2015; Садиков З. Юсуф Хос Ҳожиб “Қутадғу Билиг” асарининг немисча ва инглизча таржималари қиёсий-чоғиштирма таҳлили: Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2020;

O‘zbek tilshunosligida lingvokulturemalarni tadqiq qilish borasida bir qator izlanishlar olib borilgan bo‘lib, mazkur ishlar qatorida N.To‘xtaxo‘jayevaning tadqiqotini alohida qayd etish joiz. Ishda *happiness, joy, luck, sadness; baxt, shodlik, omad, qayg‘u* universal lingvokulturemalarining tarjimada frazeologik birliklar bilan ifodalanishi hamda stilistik vositalar orqali yoritilgan lingvokulturemalarning tarjima xususiyatlari alohida tadqiq etilgan⁵. Shuningdek, O.Fayzulloyevning tadqiqotida o‘zbek bolalar folklori va ertak janri misolida lingvokulturemalarning universal, milliy-madaniy, leksik-semantik, stilistik xususiyatlari aniqlanib, ularni ingliz tiliga o‘g‘irishdagi muqobil variantlarini asoslashga doir mulohazalar bayon etilgan⁶.

Yuqoridagi tadqiqotchilar lingvokulturemaning madaniy birlik sifatidagi xususiyatlarini ochib bergan bo‘lsalar-da, lingvokulturologik birliklarni nomlash bo‘yicha unifikatsiya qilish, bilingual (ikki tilli) badiiy matnda lingvokulturemalarni chuqur tahlil qilish masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Shu bilan birga, ularning semantik-assotsiativ jihatlarini tasniflash, leksemalar hamda undan katta birliklarning paradigmatic va sintagmatic aloqalari, milliy-madaniy jihatlarining o‘ziga xosligini belgilash, ikki tilli badiiy matn tarjimalarida bir tildan ikkinchi tilga o‘g‘irish usullarini aniqlash hamda amaliyotga tatbiq qilish masalalari hanuzgacha yetarlicha yechimini topgani yo‘q.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan mosligi. Dissertatsiya Farg‘ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot rejasining “Tilning leksik-semantik tizimi, milliy-madaniy xususiyatlari va tarjimashunoslik muammolari” mavzusi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek va ingliz badiiy matnlaridagi lingvokulturemalarning leksik-semantik va milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlash hamda ularning tarjima jarayonida qo‘llanish usullarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘zbek va ingliz badiiy matnlaridagi lingvokulturemalarning leksik-semantik xususiyatlarini chog‘ishtirma aspektida aniqlash;

turli lingvomadaniyatlarda denotativ realiyalarning qo‘llanishidagi umumiy hamda farqli tomonlarini o‘rganish;

o‘zbek va ingliz badiiy matnlaridagi universal lingvokulturemalarning tarjima qilish xususiyatlarini aniqlab, semantik-assotsiativ jihatlarini tasniflash;

badiiy matnlarda lingvokulturemalar tarjima adekvatligining lisoniy hamda nolisoniy omillarga bog‘liqligini aniqlash;

Khoshimova D.M. Scientific terms and comparative style in “Baburname” // International scientific journal Theoretical and Applied science. ISSN: 2409-0085, 2015. – P.55-57; Каримов К. Маданиятлараро мулоқот ва таржима муаммолари // ФарДУ. Илмий хабарлар. – Фарғона, 2018. – № 2. – В.76-79.

⁵Тухтаходжаева Н.А. Бадий таржимада лингвокультуреmalarнинг ифодаланиши (инглиз ва ўзбек тиллари мисолида): Филол. фан. б. фалс. док. (PhD)... дисс. – Тошкент, 2017.

⁶Файзуллоев О.М. Ўзбек фольклоридаги лингвокультуреmalarнинг инглизча таржимада берилиши (болалар фольклори ва эртақлар мисолида): Филол. фан. б. фалс. док. (PhD)... дисс. – Тошкент, 2019.

lingvokulturemalar bilan bog‘liq milliy koloritning tarjimada saqlanishidagi tarjimon mahorati, shu bilan birga, uslubiy imkoniyatlarni hamda cheklovlarni o‘zbek va ingliz badiiy matnlaridagi misollar orqali dalillash.

Tadqiqotning obykti sifatida o‘zbek va ingliz badiiy matnlaridagi lingvokulturemalar, ularning tarjimalari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek va ingliz badiiy matnlaridagi lingvokulturemalarning tarjimadagi leksik-semantik, etnolingvistik va lingvokulturologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni yoritishda lingvistik tavsiflash, etimologik tahlil, funksional-semantik, germeneytik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zbek va ingliz badiiy matnlaridagi lingvokulturemalarning leksik-semantik xususiyatlari ilk marta o‘zbek millatiga xos, turkiyzabon xalqlarga xos, bir necha madaniyatlar uchun umumiy bo‘lgan universal lingvokulturemalarga ajratilgan holda chog‘ishtirma aspektida tahlil qilinib, denotativ realiyalar qo‘llanishidagi ijtimoiy-tarixiy jihatdan umumiy, milliy koloritni ifodalashdagi farqli jihatlari ochib berilgan;

turli lingvomadaniy muhitlarda ekstralingvistik omillar natijasida yuzaga kelgan *Qovoq, Bo‘taloq, Vavag‘; Hulk, Windjammer, Wooden-head* kabi lakuna hodisasiga uchragan badiiy obrazlarga qo‘shimcha ma‘no yuklovchi konnotativ realiyalarning madaniy-semantik bo‘shliq hosil qilishi semantik-assotsiativ jihatdan dalillangan;

o‘zbek va ingliz tillaridagi universal lingvokulturemalar tarjimasi bilan bog‘liq xususiyatlar aniqlanib, lingvokulturemalarning badiiy matnlarda tarjima adekvatligi lisoniy va nolisoniy omillarga bog‘liq bo‘lib, milliy koloritning saqlanishida tarjimonning transliteratsiya, transkripsiya, adaptatsiya, kalkalash usullarini qo‘llash mahorati, shu bilan birga, uslubiy imkoniyatlar va cheklovlar aniqlangan;

har ikki tildagi badiiy matnlar tarkibida chog‘ishtirilayotgan lingvokulturologik xususiyatlarni o‘zida aks ettiruvchi murakkab sintaktik butunliklar aniqlanib, bunday birliklarning tarjima bilan bog‘liq sintagmatik, pragmatik, tarixiy-genetik, madaniy-estetik jihatlari dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

badiiy asarlar asl nusxadan milliy-madaniy jihatlariga ko‘ra tarjima qilinishidagi muammolarni qiyosiy tahlil etish, lingvokulturemalarning umumiy va xususiy jihatlarini aniqlash orqali olingan xulosalar o‘zbek va ingliz tarjimashunoslik sohasini yangi nazariy qarashlar bilan boyitishga xizmat qilgan. Bir tildan ikkinchi tilga o‘girish jarayoni qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik va lingvokulturologiya sohalarini qamrab olib, ularning rivojlanishi uchun ilmiy yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qilishi aniqlangan;

o‘zbek va ingliz tillaridagi universal va milliy-madaniy lingvokulturemalarni tashkil etuvchi til birliklarining chog‘ishtirma tahlili ikki millat dunyoqarashi,

ulardagi olamning lisoniy manzarasining o'ziga xosligi til o'rganuvchilarning millatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qilishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi muammoning aniq qo'yilishi, yondashuv usullarining maqsadga muvofiq ekanligi, tahlil etilgan misollarning ilmiy ish predmetiga mosligi, tahlilga tortilgan lingvokulturemalarning ifodalanishi ishonchli manbalar orqali aniqlangani hamda jahon tarjimashunosligining yangi ilmiy konsepsiyalari va nazariy qarashlari asosida qiyosiy o'rganilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. O'zbek va ingliz badiiy asarlarining tarjimasini chog'ishtirma o'rganishda muhim bo'lgan asliyat va tarjima o'rtasidagi milliy-madaniy, uslubiy umumiylik, xususiylik holatlarini aniqlash, lingvokulturemalarni ifodalash usullarini belgilash hamda to'laqonli tarjima uchun asos yaratish muhim ahamiyatga ega.

Tarjimashunoslik, qiyosiy adabiyotshunoslik, jahon xalqlari adabiyoti, folklori, madaniyatlararo muloqotga oid fanlar uchun darslik hamda o'quv qo'llanmalarini yaratishda, matn tahlili, qiyosiy tipologiya fanlari bo'yicha qo'llanmalar tayyorlashda, shuningdek, lingvokulturologik realiyalarning o'zbekcha-inglizcha izohli lug'atini tuzishda, maxsus kurslar o'tkazishda manba sifatida foydalaniladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek va ingliz badiiy matnlaridagi lingvokulturemalarning semantik tadqiqi hamda tarjima muammolari yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

o'zbek va ingliz badiiy matnlaridagi lingvokulturemalarning leksik-semantik xususiyatlari ilk marta o'zbek millatiga xos, turkiyzabon xalqlarga xos, bir necha madaniyatlar uchun umumiy bo'lgan universal lingvokulturemalarga ajratilgan holda chog'ishtirma aspektida tahlil qilinib, denotativ realiyalar qo'llanishidagi ijtimoiy-tarixiy jihatdan umumiy, milliy koloritni ifodalashdagi farqli jihatlari ochib berilganligi; turli lingvomadaniy muhitlarda ekstralingvistik omillar natijasida *Qovoq, Bo'taloq, Vavag'*; *Hulk, Windjammer, Woodenhead* kabi lakuna hodisasiga uchragan badiiy obrazlarga qo'shimcha ma'no yuklovchi konnotativ realiyalar madaniy-semantik bo'shliq hosil qilishi semantik-assotsiativ jihatdan dalillanganligiga doir ilmiy natija va xulosalaridan 2022-2023-yillarda O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida amalga oshirilgan "O'zbek milliy raqs san'atini targ'ib etishga bag'ishlangan veb-sayt va multimedia mahsulotlari (elektron lug'atlar) to'plami yaratish" mavzusidagi F3-2019081663 raqamli fundamental loyihani bajarishda, xususan, "O'zbek folklor san'ati terminlarining qisqacha o'zbekcha-inglizcha-nemischa izohli lug'ati"ni yaratishda foydalanilgan (O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2024-yil 14-avgustdagi 1-04/116-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha materiallari mukammallashtirilgan va ilmiy-amaliy dalillar bilan boyitilgan;

o'zbek va ingliz tillaridagi universal lingvokulturemalar tarjimasini bilan bog'liq xususiyatlar aniqlanib, lingvokulturemalarning badiiy matnlarda tarjima adekvatligi lisoniy va nolisoniy omillarga bog'liq bo'lib, milliy kolorit saqlanishida tarjimonning asosiy to'rt xil: transliteratsiya, transkripsiya, adaptatsiya, kalkalash usullarini qo'llash mahorati, shu bilan birga, uslubiy

imkoniyatlar va cheklovlar aniqlanganligiga doir xulosalaridan Amerika Qo‘shma Shtatlarining O‘zbekistondagi elchixonasining 2021-2023-yillarda faoliyat olib borgan “Mindonobod Satellite Access Microscholarship Program” S-UZ800-21-GR-3126 xalqaro amaliy loyihasi doirasida foydalanilgan (Farg‘ona tumani maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi 62-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining 2025-yil 13-yanvardagi 1-son ma‘lumotnomasi). Natijada loyiha ilmiy jihatdan boyitilib, undagi madaniyatlararo muloqot, til va madaniyat munosabatlariga doir nazariy, amaliy asoslar takomillashtirilgan;

har ikki tildagi badiiy matnlar tarkibida chog‘ishtirilayotgan lingvokulturologik xususiyatlarni o‘zida aks ettiruvchi murakkab sintaktik butunliklar aniqlanib, bunday birliklarning tarjima bilan bog‘liq sintagmatik, pragmatik, tarixiy-genetik, madaniy-estetik jihatlari dalillanganligiga oid xulosalardan 2022-2023-yillarda O‘z MTRK “O‘zbekiston” teleradiokanalining “Bedorlik”, “Ijod zavqi”, “Ta‘lim va taraqqiyot”, “Millat va ma‘naviyat” eshittirishlari ssenariysini yozishda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 30-avgustdagi 903-son ma‘lumotnomasi). Natijada eshittirishlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni takomillashgan va ularda taqdim etilgan mazkur ilmiy natijalar tomoshabinlarning milliy-madaniy jihatdan so‘zlarga e‘tiborli bo‘lishida va ularni o‘rinli qo‘llashida muhim ahamiyat kasb etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 11 ta ilmiy-nazariy hamda ilmiy-amaliy konferensiyalarda, shu jumladan, 6 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma‘ruza shaklida bayon qilingan, jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 23 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, ulardan, 4 tasi respublika hamda 8 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 139 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti, predmeti aniqlangan, ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatib berilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e‘lon qilinganligi, ishning tuzilishi haqidagi ma‘lumotlar berilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi **“Tilshunoslikda lingvokulturemalar tadqiqining nazariy asoslari”** deb nomlangan va quyidagi fasllardan iborat: *“Jahon tilshunosligida lingvokulturolik birliklar tadqiqi”, “O‘zbek tilshunosligida*

lingvokulturologiya masalalari”, “*Tilshunoslikda lingvokulturologik atamalarining turlicha talqinlari*”. Mazkur bobda jahon tilshunosligida lingvokulturologiyaning tarixiy ildizlari, dunyo tilshunosligida til va madaniyat asosida fanning rivojlanib borishi, o‘zbek va ingliz tillarida lingvokulturemalar semantikasi tadqiqiga bag‘ishlangan izlanishlar singari masalalar haqida nazariy fikr-mulohazalar yoritilgan. Zamonaviy tilshunoslikda yangi davrga xos *etnik renessans* yetakchilik qilib, ilm-fanda eng muhim va munozarali masalalar muayyan xalq, ijtimoiy o‘ziga xoslik va o‘zini o‘zi anglashga bo‘lgan qarashlarni yuzaga keltirdi. Natijada, ilmiy izlanishlarda lisoniy identiklik va uning etnik madaniyat bilan uzviy bog‘liqligi xalqning etnogenez jarayonida muhim ekanligi o‘z isbotini topmoqda. Til mavjud ekan, u nafaqat madaniyat bilan bog‘liqlikda bo‘ladi, shu bilan bir qatorda, madaniyatning o‘shini ham ta’minlaydi.

E.Sepir XX asr birinchi yarmining nufuzli tilshunoslaridan biri bo‘lib, u lingvistik tipologiya, fonologiya va sotsiolingvistika sohalarida ko‘plab yutuqlarga erishgan. Uning fikriga ko‘ra, “til madaniyat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, unda rivojlanadi, uni ifoda etadi va madaniyat ravnaq topishida asos bo‘lib xizmat qiladi”⁷. Ma’lumki, E.Sepir aynan Shimoliy Amerika xalqlarining milliy-madaniy shakllanishi hamda etnografik jihatdan ko‘plab ma’lumot bergan olim sifatida quyidagicha fikr bildiradi: “Qadimgi predmetlarning madaniy shakllarda “aks etishi”ning yaqqol ko‘rinishi sifatida asboblar, urf-odatlar yoki afsonalardagi e’tiqodlarga tayangan matnlarni keltirishimiz mumkin. Bunday madaniy elementlar qanchalik ko‘p qo‘llangan va jamiyat ongida stereotip hosil qilgan bo‘lsa, biz bunday madaniy elementlar shunchalik uzoq vaqtdan buyon mavjud ekanligini tan olishimiz kerak”. E.Sepir “madaniyat” tushunchasi, odatda, san’at, ilm-fan va din bilan chegaralanib qolganligini, bu esa o‘rinsiz ekanligini ta’kidlaydi⁸. E.Sepir va B.Uorf fikricha, lingvokulturologiya tildagi madaniy qadriyatlarining tizim sifatida aks etgan obyektlarini nazariy va tavsifiy jihatdan yaxlit o‘rganishni, lingvistik nisbiylik nazariyasi asosida turli tillar (xalqlar) lingvokulturologik sathida chog‘ishtirib tahlil qilishni o‘zida aks ettiradi, degan qarashlarni ilgari suradi. Shuningdek, olim B.Uorf fikriga ko‘ra, olamning ham lisoniy, ham ilmiy manzaralari mavjudligini ta’kidlaydi. Bu ikki manzara umumiy holda ongda olam haqidagi tasavvurlarni shakllantirib boradi⁹.

Lingvokulturologiyaning paydo bo‘lishi haqida so‘z borganda, ko‘plab tadqiqotchilar bu nazariyaning asoslari V.fon Gumboldtga borib taqalishini ta’kidlaydilar. Nemis olimining fikricha, til millat ruhini ifodalaydi va shakllantiradi, shuningdek, olam haqidagi milliy tasavvurlar va turli tillarning mavjudligi turli xalqlar tafakkurining xilma-xilligiga asoslangan¹⁰. Ushbu sohada

⁷Nurmonov A. Sepir-Uorfning lingvistik nisbiylik nazariyasi haqida mulohazalar / O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. – Toshkent, 2011. – № 5. – B.3-16.

⁸Sapir E. Time perspective in aboriginal American culture, a study in method // Geological Survey Memoir. Anthropological Series. – Ottawa: Anthropological Series, 1916 – № 13. – P.88-91.

⁹Уорф Б.Л. Отношение норм поведения и мышления к языку // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. – М., 1960, – № 1. – B.183-198.

¹⁰V.Gumboldtning til va shaxs haqidagi fikrlari to‘g‘risida. *Qarang*: Nurmonov A. Ovrupoda umumiy va qiyosiy tilshunoslikning maydonga kelishi // Tanlangan asarlar. 2-jildlik. – Toshkent: Akademiya, 2012. – B.25-41.

A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glins, X.Xols, D.Uitni, D.Pauell, F.Boas, E.Sepir, B.Uorf, G.Brutyan, A.Vejbiskaya va D.Haymz kabi tilshunoslarning g‘oyalari muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslangan¹¹.

XX asrning ko‘zga ko‘ringan tilshunoslaridan biri, tilning tuzilishi va evolyutsiyasini o‘rganish bilan shug‘ullangan, zamonaviy tilshunoslikning etnolingvistik va kognitiv sohasi tadqiqotchisi E.Benvenist dunyo tillarining o‘zaro ta‘sirini bayon etar ekan, til va madaniyat – madaniyatni tashkil etuvchi barcha ijtimoiy hodisalarning umumiy belgisi sifatida tilda asoslanishiga o‘zining qat‘iy fikrini bildiradi¹². J.Lakoff metafora, jonlantirish, til va tafakkur o‘rtasidagi munosabat kabi yo‘nalishlardagi salmoqli ishlari bilan mashhur. U tadqiqotlarida metaforani tadqiq etishga kognitiv yondashish maqsadga muvofiqligi hamda metafora sof lingvistik hodisa emas, u olamni konseptuallashtirish omili bo‘lishi bilan birga, tafakkur dalili ekanligi haqidagi qarashlarni ilgari suradi¹³.

Leksikaning madaniyatga yo‘naltirilganligi jihatidan kelib chiqib, konseptning so‘z konnotatsiyasi ko‘lamiga mansubligi to‘g‘risidagi qarashlarni M.Jonson taqdim etgan. Uning fikricha, mazmun jihatdan metafora har qanday sathda inson tajribasini bir sohadan boshqa sohaga uyg‘unlashtiradi hamda amalda tatbiq qiladi. Bu qarash R.Ladoning konnotatsiyaning madaniy ahamiyati haqidagi g‘oyalarini hamda ijtimoiy-madaniy ahamiyati haqidagi qarashlarni yuzaga chiqardi. Buni R.Lado ispan va amerika madaniyatini solishtirgan holda chog‘ishtirma tilshunoslikda olib borgan tadqiqotida bayon etgan. Olim o‘z asarida ommaviy migratsiya va gibrid madaniyatlarga aloqador bo‘lgan eng muammoli milliy-madaniy hodisalar va keng qamrovli madaniyatlararo tushunishni ta‘minlash uchun oqilona, tizimli tahlillar olib borgan. Shuningdek, har bir jamiyatda til ko‘nikmalari va ikki til egalarida so‘zlarni ishlatishda yuzaga keladigan ayrim kamchiliklar haqida to‘xtalib o‘tgan¹⁴.

Hozirgi vaqtda tilshunoslik fanida yangi yo‘nalishlarning paydo bo‘lishi badiiy matn muammosini o‘rganish bilan bog‘liq ishlar jadallik bilan rivojlanishiga turtki bo‘lmoqda. Madaniyatning o‘rganilishida turli nuqtayi nazarlar mavjud bo‘lib, madaniyatni matnlarda o‘rganish germenevtik yo‘nalish hisoblanadi. Unga ko‘ra, madaniyatga matnlar to‘plami sifatida murojaat qilinadi. “Matnlar – madaniyatning asosi va oqib turgan qonidir. Ular o‘zlashtirilishi kerak bo‘lgan axborotlar yig‘indisi sifatida baholanib, asar muallifining shaxsiy o‘ziga xosligi, bahosini jamlagan bo‘ladi”¹⁵. Haqiqatan ham, madaniy xususiyatlarni tahlil qilish hamda o‘rganish uchun matn eng zaruriy manba vazifasini o‘taydi. Shuningdek, “germenevtika faqat tarixiy matnni sharhlash nazariyasi bo‘lib qolmay, balki universallashtirgan, hatto oddiy o‘quvchi asarni anglab yetishi bilan bog‘liq

¹¹Маслова В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. – М., 1987. – С.44.

¹²Бенвенист Э. Общая лингвистика. – М.: Прогресс, 1974. – С.107.

¹³Лакофф Д. Когнитивная семантика. Язык и интеллект // Сборник. Пер. с англ. и нем. В.В.Петров. – М.: Прогресс, 1995. – С.56-67.

¹⁴Qarang: Kramsh C. Re-reading Robert Lado, 1957, Linguistics across Cultures // Applied linguistics for language teachers. Classic book review. – USA: Blackwell Publishing Ltd., 2007. – № 2. – P.242.

¹⁵Саидова М., Кўзиев У. Лингвокультурология // Услубий қўлланма. – Наманган: Камалак, 2017. – Б.127.

hodisalarni ham qamrab oladigan ta'limotdir. Ayrim manbalarda esa unga – “matn”ni tushunish va talqin etish san’ati – interpretatsiya to’g’risidagi ta’limot”, deb ham ta’rif berilgan¹⁶. Bundan ma’lum bo’ladiki, qadimdan mavjud bo’lgan matnlarga nisbatan oddiy bir ma’lumot emas, madaniy merosni hamda barcha ijtimoiy ma’lumotlar yig’indisi, ya’ni ma’lumotlar ombori sifatida yondashilgan va tahlil qilingan.

Bu yo’nalish o’zbek tilshunosligida dastlabki davrlardan boshlab etnografik hamda lingvistik jihatdan o’rganib kelingan. Shu jihatdan M.Koshg’ariy xalq og’zaki ijodi namunalarida, shuningdek, folklorda qo’llangan so’zlar haqida o’z fikrini bildirib, hayotda ishlatiladigan asboblar, ashyolar uchun qo’llangan so’zlar hamda turli xil xitoy, rus, hind kiyimlari, taom nomlari, ism, joy nomlari va dorilar nomiga alohida izohlar berib o’tgan, ularning o’rniga turkiy tilda qaysi so’zlardan foydalanish mumkinligini ko’rsatib bergan¹⁷.

Turg’un birikmalar va ularda milliy-madaniy xususiyatlarni ochib beruvchi ishlardan “O’zbek tili o’xshatishlarining izohli lug’ati”ni belgilashimiz mumkin¹⁸. Aynan bu lug’atda o’zbek milliy-madaniy xususiyatlarini namoyon etuvchi turg’un o’xshatishlar berilgan.

Madaniy birliklarni o’rganish jarayoni so’zning semantik xususiyatlariga e’tibor qaratish va har bir so’zga alohida yondashuv talab etilishini ifodalaydi. Ushbu qarashlarni tilshunos olim Sh.Safarov o’z monografiyasida quyidagicha izohlaydi: “Madaniy birliklarni o’rganish jarayoni so’zning semantik xususiyatlariga e’tibor berish va har bir so’zga alohida yondashuvni talab qilishni o’z ichiga oladi”¹⁹.

D.Xudoyberganova lingvokulturologik birliklarni o’rganishda hamda tahlil qilishda insonning tafakkur olami hamda verbal aloqada bayon etilgan har bir fikr, so’z va matnni o’rganar ekan, tadqiqot markaziga uni idrok etuvchi shaxsni qo’yadi hamda madaniyat va so’z uyg’unligiga quyidagicha ta’rif beradi: “Lingvokulturologik yondashuvlarga ko’ra, matn muayyan xalqning madaniy qadriyatlarini, milliy-mental fikrlash tarzini namoyon etuvchi lingvomadaniy birlikdir. Xususan, pretsedent birliklar madaniy birliklarni avloddan avlodga olib o’tuvchi vosita sifatida namoyon bo’ladi. Tarkibida o’xshatishlar, metaforalar, maqol va frazeologik birliklar, nutqiy etiketlar bo’lgan matnlar o’zida milliy-madaniy qadriyatlarni tajassum etgan lisoniy-madaniy hodisa sifatida qayd etiladi”²⁰. Bundan ko’rinadiki, har bir so’z yoki birikma o’z-o’zidan hosil bo’lmaydi, balki o’sha millat mentaliteti, qadr-qiyamatini va ruhiyatini ochib beradi.

Shu o’rinda o’zbek tilshunosligining lingvokulturologiya yo’nalishida sermahsul izlanish olib borib, kognitiv tilshunoslikka oid dolzarb muammolarni

¹⁶Allayarova S.N. Falsafiy germenevtikaning metodologik jihatlari. – Toshkent: Extremum-Mum Press, 2017. – B.16.

¹⁷Абдулахатов Н., Тошпўлатов И., Носирова У., Жўрабоева У. Махмуд Қошғарийнинг “Девону луғотит турк” асаридаги лексик бирликлар тадқиқи / Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2013. – Б.88.

¹⁸Махмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – Б.120.

¹⁹Сафаров Ш. Семантика / Монография. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2013. – Б.167.

²⁰Худойберганова Д. Матннинг антропоцентриқ тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – Б.36.

tadqiq etgan o‘zbek olimlari A.Mamatov, Sh.Safarov, G‘.Hoshimovlarning tilshunoslik ravnaqiga qo‘shgan hissalar ulkanligini ham ta’kidlash zarur²¹.

Lingvokulturemalar tarjimasiga bag‘ishlangan muhim ishlardan N.To‘xtaxo‘jayevaning tadqiqotini qayd etish joiz. Unda *happiness, joy, luck, sadness; baxt, shodlik, omad, qayg‘u* universal lingvokulturemalarining tarjimada frazeologik birliklar bilan ifodalanishi, stilistik vositalar orqali ifodalangan lingvokulturemalarining tarjima xususiyatlariga alohida yondashilganligini ko‘rishimiz mumkin²². N.Amankulovning sifat so‘z turkumiga mansub leksemalarning lingvokulturologik tadqiqi masalalariga bag‘ishlangan ilmiy ishida belgi bildiruvchi leksemaning darajasini ko‘rsatuvchi barqaror lingvokulturemalar qo‘llanib, lingvokulturologik jihatdan sifatni bildiruvchi leksemalar tahlilga tortilgan²³.

Lingvokulturolog olimlar o‘z ilmiy izlanishlarida dastlabki lingvokulturologiya fani atamalarini doimiy ravishda takomillashtirishga harakat qilishdi. Shunga qaramasdan, turli tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida ma’lum xususiyatga ega etnospetsifik tushunchalarning terminlari bo‘lgan turli atamalarga duch kelamiz. Shuning uchun ham turli tadqiqotchilar lingvistik va madaniy tushunchalarning alohida jihatlariga e’tibor qaratib, ko‘pincha, ikki jihatning, ya’ni til va madaniyat tutashgan nuqtalarini aks ettiruvchi atamalar yaratishdi. Ushbu hodisani o‘rganish so‘zning semantik tuzilishini ko‘zda tutuvchi nazariya bo‘lib, u tilning kumulyativ funksiyasini nazarda tutadi.

Shuningdek, lingvokulturologiya asoschilaridan V.A.Maslova lingvokulturema atamasi haqida quyidagilarni bayon etadi: “*Lingvokulturema*” V.Vorobyov tomonidan kiritilgan atama hisoblanadi. Bu keng qamrovli dialektik birlikni ifodalovchi sathlararo birlik bo‘lib, lingvistik va ekstralingvistik (konseptual yoki ifoda) ma’noga ega. V.Vorobyov fikricha, lingvokulturema tilshunoslikdagi u belgi bilan birga keladigan madaniy ma’noni o‘z ichiga olgan so‘zlar majmuyidir”²⁴. Albatta, har bir til ma’lum miqdordagi milliy madaniyatni aks ettiruvchi lingvokulturemalarni o‘z ichiga oladi.

A.E.Mamatov lingvokulturemaning yuzaga kelishi va undagi o‘ziga xos xususiyatlar haqida shunday deydi: “Lingvokulturema til sathi birligi deb qaraladi va unda lingvistik, ekstralingvistik dialektik yaxlitlik aks etgan bo‘lib, bu yaxlitlik o‘z ichiga tushunchaga oid hamda predmetga oid mazmunni qamrab oladi. Bu ma’lum bir lingvistik-madaniy jamoada keng qo‘llanadigan ismlar, faktlar,

²¹Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika. – Toshkent: Noshir, 2019; Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах, 2006.; Хошимов Г.М. К теории концептов и их таксономии в когнитивной лингвистике // Систем-структур тилшунослик муаммолари. Филология фанлари доктори, профессор Н.К.Турниёзов таваллудининг 70 йиллигига бағишланган Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. – Самарқанд, 2010.

²²Тухтаходжаева Н.А. Бадий таржимада лингвокультуремаларнинг ифодаланиши (инглиз ва ўзбек тиллари мисолида): Филол. фан. б. фалс. док. (PhD)... дисс. – Тошкент, 2017. – 141 б.

²³Amankulova N. O‘zbek tilida sifatga oid leksemalarning lingvokulturologik tadqiqi masalalari. Monografiya. – Toshkent, 2021. – 136 b.

²⁴Маслова В.В. Лингвокультурология: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Издательский центр академия, 2001. – С.58.

bayonotlar, pretsedent matnlar va boshqalarning mavjudini aniqlaydigan lingvokulturologiyani asosini tashkil etuvchi birliklardir”²⁵.

Lingvokulturema bir tomondan lakuna, mifologema, metafora, ramz, stereotiplar kabi birliklar bilan ifodalansa, shakl nuqtayi nazaridan, bular frazeologik birlik, maqol, pretsedent hodisa, grammatik birliklarni o‘z ichiga oladi. Shuni ta’kidlash mumkinki, o‘zbek tilidagi ilmiy nazariyaga ko‘ra, realiya va lingvokulturema bir-birini taqozo qiluvchi tushunchalardir.

Lingvokulturologiyani o‘rganar ekanmiz, turli shakldagi va juda o‘xshash mazmundagi turli atamalarga duch kelamiz. Masalan, o‘zbek tilida “madaniy-lingvistik tadqiqotlarning qimmatli birliklari; rus tilida “*лингвострановедческие ценные единицы*” (Vereshchagin, Kostomarov, 1980), ingliz tilida “*cultural and ethnological units*” (Sheyman, 1994), “*лингвокультурема*” (Vorobyov, 1996), “*национальные социокультурные стереотипы*” (Proxorov, 1997) va boshqalar. Mazkur ifodalar ma’lum bir tilda so‘zlashuvchilarning olamni anglash va uning lisoniy tasvirida aks ettirishning o‘ziga xos usulini namoyon etadi. Yuqorida tilga olingan atamalar lingvokulturologik birliklar sifatida foydalaniladigan yagona atamalar emas. Ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan qo‘llanadigan yana bir asosiy va eng ko‘p tarqalgan birlik lingvokulturologik konseptdir. Lingvokulturema konseptga nisbatan murakkab tuzilishga ega. U lingvistik ma’nodan tashqari madaniy ma’nolar (madaniyatga aloqador ma’nolar va ular bilan bog‘liq matn tarkibida kengaytmalar, milliy madaniyat, tarix, jamiyat taraqqiyotiga bog‘liq) xususiyatlarni tashkil etadi. Lingvokulturema maydonlarini aniqlashtirishda til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish eng muvozanatlashgan yondashuv hisoblanadi. So‘z ichki shaklini ko‘rib chiqish – ifoda planidan mazmun planiga yo‘naltirilgan, konsept esa mazmundan ifoda planiga qaratilgan.


O‘.Yusupovning fikricha, lingvokulturologiyaning asosiy vazifasi milliy madaniyatni lingvistik shaklda ifodalashdir. “Lingvokulturema” tushunchasi chog‘ishtirma tilshunoslik uchun foydali, “zero til – madaniy fakt, biz meros qilib oladigan madaniyatning tarkibiy qismi va, ayni paytda, quroli hamdir. Xalq madaniyati til orqali verballashadi, aynan til madaniyatning tayanch, asosiy tushunchalarini harakatga keltiradi va ularni belgilar ko‘rinishida, ya’ni so‘zlar vositasida ifoda etadi”²⁶. Demak, til va madaniyatning uyg‘unlashuvi lingvokulturemalarda namoyon bo‘ladi.

Dissertatsiyaning “**O‘zbek va ingliz badiiy matnlarida lingvokulturemalar tahlili**” nomli ikkinchi bobi uch fasldan iborat bo‘lib, har bir fasl muayyan bir lingvokulturemaning muhim xususiyatlarini yoritadi hamda quyidagicha ataladi: “*Lingvokulturologik birliklarning semantik tasnifi*”, “*O‘zbek va ingliz badiiy matnlarida denotativ realiyalarning ishlatilishidagi umumiy va farqli jihatlari*”, “*O‘zbek va ingliz badiiy matnlaridagi lakunalarning o‘ziga xos xususiyatlari*”. Ushbu bobda lingvokulturemalarning semantik tasnifi shakllantirilgan bo‘lib, shu tasnif asosida atroflicha tahlillar o‘tkazilgan.

²⁵Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Noshir nashriyoti, 2019. – B.32.

²⁶Юсупов Ў.Қ. Тилшуносликда янги йўналишлар ва уларда ишлатиладиган айрим истилохлар // Филология масалалари. – Тошкент, 2011. – № 2. – Б.24.

Lingvokulturemaning manbai ma'lum bir madaniy va lingvistik hamjamiyatda keng tarqalgan atrofimizdagi olam haqidagi og'zaki nutqqa xos so'zlardan tashkil topgan. Turli omillar lingvokulturemalar shakllanishida muhim hisoblanadi, masalan, asrlar davomida yuzaga kelgan urf-odat va qadriyatlar, badiiy adabiyotlar hamda tarixiy siymolar, madaniy manbalar ular sirasiga kiradi. Shunga ko'ra, M.Mirjalilova o'zining "Frazeologik birliklar lingvokulturema sifatida" nomli maqolasida lingvokulturemalarning yuzaga kelishi va rivojlanishida quyidagi manbalar mavjud ekanligi haqida ma'lumot berib o'tgan²⁷:



1-rasm. Lingvokulturemalarning yuzaga kelish manbalari

Shunga asoslanib aytish mumkinki, lingvokulturemalarni badiiy matnlarda tahlil qilish ularda mavjud bo'lgan kundalik realiyalar, nutq madaniyati, o'sha davr bilan bog'liq bo'lgan urf-odatlarini o'rganish uchun eng zaruriy manba vazifasini o'taydi. Badiiy asarlarni tahlil qilishda ma'lum milliy-madaniy ma'no ko'lamlarini yetkazib berish juda muhim.

O'zbek tilshunosi M.Qurbonova "Badiiy matnning til xususiyatlari tekshirilayotganida, undagi har bir hodisaga makon va zamon birligi tushunchasini hisobga olib yondashish kerak. Har qanday asar davr va makon bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Tarixiy mavzudagi asar tilida muayyan zamon ruhini tashuvchi voqealarning qaysi makonda, qanday muhitda yuz berayotganini oydinlashtiruvchi leksik-grammatik birliklar ishtirok etadi"²⁸, deya ta'kidlaydi. Demak, badiiy matn o'sha davrning madaniy muhitidan kelib chiqqan holda ma'lum xabarlarni kelgusidagi o'quvchi – kitobxon uchun ham yetkazadi.

Badiiy asar faqat adabiy jihatdan emas, balki estetika va mantiq nuqtayi nazaridan ham baholanadi. Badiiy matn boshqa matn turlaridan quyidagi o'ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi: u estetik vazifani bajaradi, mavjud bo'lgan jamiyatning ijtimoiy-madaniy voqeliklarini ifoda etadi. Idrok etish va to'g'ri tushunishga ko'ra kitobxonlar tipologiyasi bo'yicha badiiylikning chegarasi o'zgaruvchan: biror etnik jamoa uchun badiiy me'yor doirasidagi matn boshqa


²⁷Mirjalilova M. Frazeologik birliklar lingvokulturema sifatida // International journal of art. ISSN 2181-9297. – Toshkent, 2022. – B.194-200.

²⁸Qurbonova M. Matn tilshunosligi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2014. – B.49.

madaniyat vakili uchun bunday maqomga ega bo‘lmasligi mumkin. Shunga ko‘ra, har qanday lingvokulturemalar yoki tushunchaning semantik jihatiga yondashishda ushbu omillarga alohida e‘tibor berish talab etiladi:

1. Milliy mentalitet va mentallik xususiyatlarini yetkazish.
2. Milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an‘analar bilan bog‘liq ma‘no qatlamlarini ochib berish.
3. Adabiy-badiiy ifodalarning estetik va mantiqiylik jihatlarini namoyon etish.
4. Asar muallifi va qahramonlarning dunyoqarashi, fikrlash tarzi va his-tuyg‘ularini to‘liq ifodalash.

Yuqoridagi xususiyatlardan kelib chiqqan holda, milliy-madaniy xususiyatlarni ifodalovchi lingvokulturemalarning uchta asosiy semantik guruhi mavjud:



Chizmada keltirilgan tasnifga asoslanib, badiiy matnlarda lingvokulturemalarni tahlil qilar ekanmiz, ingliz tilida so‘zlashuvchi o‘quvchilarda milliy-madaniy xususiyatlarni anglash uchun zaruriy bilimlarning yetishmasligi natijasida tarjima matniga tegishli ismlar, geografik nomlar, madaniy va kundalik voqeliklarga tegishli realiyalarga tushuntirishlar yoki maxsus izohli lug‘atlar kiritishni talab qiladi.

Tadqiqot obyekti sifatida biz Abdulhamid Cho‘lponning “Kecha va kunduz” nomli asarini, ingliz tilida esa aynan shu asarning Kristofer Fort tomonidan tarjima qilingan variantini tanladik. Shunday qilib, ikki tilli badiiy matnning turli madaniy ko‘rsatkichlarini o‘rganish va aniqlash mezonlari, unda til asliga ko‘ra jihatlarining mavjudligini, milliy-madaniy xususiyatlari to‘liq saqlanib qolganligini lingvokulturemalar asosida tahlil qilamiz.

“Kecha va kunduz” asarida kiyim-kechak nomlaridan quyidagilar milliy-madaniy xususiyatlarni ifodalash uchun faol foydalanilgan: *do‘ppi, paranji, salla, to‘n, yaxtak, kavish-mahsi, kaltacha, kamzul, chimmat*.

Ijtimoiy hayotda maishiy ishlar uchun xizmat ko‘rsatish binolari va xodimlari: *tashqari, ichkari, machit, xonaqohlar, mingboshi, ellikboshi, amin, sovchi, eshon, murid, ayronchi, o‘gay, kundosh, kelin, aravakash, arava, mirshshab, tegirmonchi, kart, bozor, tandir, boshput, dutor* kabi ko‘plab lingvokulturemalarni uchratamiz.

O‘ziga xos munosabatlar iyerarxiyasiga ega bo‘lgan o‘zbek etnik madaniyati dunyosi lug‘atga kiritilgan boshqa leksemalar yordamida asarda yaratilgan an‘anaviy qadriyatlar tizimi bilan belgilanadi. Bunday ijtimoiy amaliyotlarning (nafaqat kundalik, balki diniy madaniyatida ham) o‘ziga xosligini nutqda

ishlatilgan juda ko‘p lingvokulturemalardan anglash mumkin. Turkiyzabon va musulmon xalqlarning ma’naviy madaniyati yoki mintaqaviy jihatiga ko‘ra badiiy asarda bir qancha lingvokulturemalarni uchramiz; *bomdod, halol-harom, mahram, andisha, haj, misvog, nomahram, muazzin*. XX asr davomida dinning roli siyosiy jihatdan barqaror bo‘lmasa ham, lekin aslida oldindan mavjud ko‘plab diniy an‘ana va amallarning esda saqlanishi natijasida diniy lingvokulturemalar badiiy asarda ko‘plab uchraydi.

Uchinchi tasnifga ko‘ra, bir nechta madaniyatlar uchun umumiy xususiyatga ega bo‘lgan universal lingvokulturemalarda umuminsoniy hamda milliy-madaniy unsurlar mavjud bo‘lib, ular chog‘ishtirilayotgan tillar olam manzarasida aksariyat ekstralingvistik holatlarda namoyon bo‘ladi. Ushbu masalada biz D.B.Gudkovning nuqtayi nazarini to‘liq qo‘llaymiz, ya’ni madaniy-ma’rifiy leksemalarning universal, “umumbashariy” jihatlari milliy belgilangan ma’noda bo‘ladi, chunki “har bir so‘z alohida milliy-madaniy maydonda o‘z maxsus holatini egallab turadi” va, shuni ta’kidlash lozimki, ularning o‘z assotsiatsiyalari va konnotatsiyalari hamda shunga mos ma’no-mazmuni mavjud bo‘ladi²⁹.

